Yangi «Mahfiy yo‘lovchi» dasturi

2021 20 Dekabr

Yo‘lovchilarning fikr-mulohazalarini bilish va xizmat ko‘rsatish sifatini baholash maqsadida «Uzbekistan Airways» AJ «Maxfiy yo‘lovchi» dasturini ishga tushiradi. Yangi tashabbus joriy yilning 15-dekabridan boshlandi.

Barcha bosqichlarda yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish haqidagi respondentlarning fikrlarini o‘rganish, mijozlarning qoniqish darajasini aniqlash, «Uzbekistan Airways» AJ yo‘lovchilariga xizmat ko‘rsatish sifati tahlilini o‘tkazish, alohida e’tibor va takomillashtirishni talab qiladigan yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish elementlarini aniqlash dasturning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

«Mahfiy yo‘lovchi» dasturida 18 yoshdan oshgan yo‘lovchilar ishtirok etishlari mumkin, ishtirokchilar soni cheklanmagan.

Dasturning eng faol ishtirokchilari, shuningdek, eng ko‘p hisobotlarni (foto, video, audiomateriallar) tayyorlagan ishtirokchilar dastur natijalari bo‘yicha aniqlanadi va uch toifali Uzairplus dasturidan yoqimli bonuslar bilan taqdirlanadi.

Mazkur dasturda ishtirok etish uchun, ushbu havoladagi ma’lumotlar bilan tanishib chiqishingizni so‘raymiz: https://www.uzairways.com/uz/hy-maxfiy-yolovchisi-dasturi-togrisida-nizom

Telegram: t.me/uzbekistanairways